

TIL TARIXIY VA IJTIMOY XODISA SIFATIDA**1.Qambarova Dilorom Yusupovna****2.Qosimjonova N****1.Farg'ona davlat universiteti****gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasi dotsenti****2.Farg'ona davlat universiteti****20.89 A gurux talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7722768>**

Tilshunoslik fani tarixida muhim o'rin tutgan «Yosh grammatikachilar» oliy ta'limi vakillari tilning tarixiy hodisa ekanligini tilning eng asosiy xususiyati deb bildilar. Ularning fikricha, til avvalo uzoq tarixga ega bo'lgan kishilik jamiyati madaniyatining mahsuli bo'lib, uni tarixiy jihatdan o'rganish zarur. Shu sababli, tilshunoslik tarixiy fan bo'lib, tilning o'ziga xos tabiatini, tilning o'zgarish sabablarini o'rganishi lozim. «Yosh grammatikachilar» oliy ta'limining eng yirik namoyandasi G.Paulning fikricha, tilshunoslik fani bilan til tarixi fani tushunchasi bir.«Yosh grammatikachilar» til hodisalarini ayrim (atomizm) holda o'rganishni tavsiya qiladilar. Ular til va tafakkur, tillarning grammatik qurilishi turlicha bo'lishi sabablari, tilning ijtimoiy tabiati kabi masalalar bilan qiziqmadilar. Ular o'sha davrda hukm surgan psixologik nazariyalarning ta'sirida bo'lib, tildagi barcha hodisalarni individual psixologiya prinsiplari asosida hal qilishga intildilar. F.de Sossyurning ilmiy g'oyasi tilning murakkab ziddiyatlarga boy, ko'p tomonlama hodisa ekanligiga asoslangan. F.de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan funksiyasiga ko'ra aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan vositadir. Ijtimoiy tabiati jihatidan-qaralganda til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgilar sistemasidir.

F. de Sossyurning ta'rificha, tilshunoslik fanining obyekti shartli belgilar sistemasi bo'lgan tilni o'rganishdir. Shuning uchun ham tilshunoslik belgilarni o'rganadigan semiotik fanlar qatoriga kiradi.F. de Sossyurning ta'kidlashicha, insonning nutq faoliyati ko'p tomonlama hodisa bo'lib, falsafa, psixologiya, fiziologiya, antropologiya, filologiya kabi turli fanlar tomonidan o'rganilishi lozim. Shuning uchun nutq faoliyatini o'rganishda F. de Sossyur ham V. fon Gumboldt kabi antinomiya metodidan foydalandi.

Tilshunoslik fanining chegarasini, predmetini aniqroq ta'riflash maqsadida F. de Sossyurm til bilan nutqni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. Til bilan nutqning asosiy farqi - til ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir. Til bilan nutqning o'zaro munosabatini F. de Sossyur quyidagi sxemada ko'rsatadi: (Ijtimoiy tabiati jihatidan-qaralganda til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgilar sistemasidir).

I.Garchi F. de Sossyur til bilan nutq o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni e'tirof etsa-da, ikkala hodisani alohida - alohida o'rganishni taklif qildi. Fanning bu ikkala tomonini o'rganish uchun F. de Sossyur til lingvistikasi va nutq lingvistikasi degan nom ham berdi.

F. de Sossyur fikriga ko'ra, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi va predmeti til lingvistikasini o'rganishdan iboratdir. Nutq lingvistikasi esa tilshunoslik uchun ikkinchi darajali masala bo'lib, boshqa fanlar tomonidan o'rganilishi mumkin.

F. de Sossyur ichki va tashqi lingvistikani ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi tilning ichki qurilishi (strukturasini)

o'rganadigan lingvistika, tashqi lingvistika esa tilning xalq madaniyati, tarixi bilan aloqasini o'rganadigan lingvistika bo'lib, tilshunoslik fani uchun ikkinchi darajali hodisadir.

Tilshunoslik fanining predmetini yanada aniqroq tasavvur etish maqsadida F. de Sossyur tilni o'rganishda sinxronik (bir vaqtda) va diaxronik (ketma-ket, tadrijiy suratda yuz beradigan yoki tarixiy) aspektlarni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi va ko'proq sinxronik aspektga ahamiyat berdi. F. de Sossyur fikricha, sinxronik aspekt bilan diaxronik aspektlar o'zaro bog'liq bo'lib, ma'lum aspektni tanlash o'z oldiga qo'yilgan ilmiy maqsadlarni nazarda tutadi.

Sinxronik aspekt til sistemasini o'rganadi, ammo diaxronik aspekt o'rganadigan obyekt esa sistemani tashkil qilmaydi.

F. de Sossyur nazariyasida asosiy antinomiya - til va nutq antinomiyasidir. Yuqorida ko'rib o'tilgan tashqi va ichki lingvistika, sinxroniya va diaxroniya antinomiyalari til va nutq antinomiyasining natijasidir. Shunday qilib, F. de Sossyur nazariyasi tilshunoslik fanining predmetini o'rganishga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. F. de Sossyur nazariyasi ta'sirida XX asrda «Strukturalizm» nomi bilan atalgan yangi lingvistik oqim vujudga keldi. Tilning ijtimoiy tabiatni talqin qilishda jahon tilshunosligi dialektik taraqqiyot prinsplariga asoslanadi. Xususan, tilni jamiyat taraqqiyotining mahsuli deb tushunish tilshunoslik faniga qo'shilgan eng buyuk hissalaridan biridir. Tilning asosiy va muhim xususiyati shundan iboratki, til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan bo'lib, eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Tilning ijtimoiy tabiati uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mavjudligini taqozo etadi. Til jamiyat tomonidan yaratilgan bo'lib, uning taqdiri ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liqdir. Insonning butun hayoti til bilan bog'liq bo'lib, til yordamida kishilar obyektiv borliqni o'rganadilar, o'zaro fikr almashadilar, jamoa bo'lib birlashadilar va mehnat qiladilar.

Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy -biologik va fiziologik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bogliq bo'lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish na fikrlash uchun kishilik jamiyati (sotsial muhit) bo'lishi shart. Chunki til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo'lgan. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Til nasldan naslga, avloddan avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Bolaning qaysi tilda so'zlay boshlashi uni o'rab turgan til muhitiga bogliq. Misol uchun, fransuz bolasi go'daklikdan yaponiyaliklar orasida tarbiyalansa, u faqat yaponcha so'zlab, o'z ona tilini bilmasligi mumkin. Ammo bolaning biologik belgilari (yuz tuzilishini, sochining rangi va hokazolar) o'zgarmagan holda shakllanib boradi. Boshqa bir misol: 1920 yilda Hindistonda ovchilar bir uyada ikki bo'ri bolasi va ikki qizchaga duch kelganlar. Ular (ayniqsa ularning kattasi-Kamola) o'zlarini bo'ri sifatida tutganlar. Kamola bo'rilar bilan 15 yil birga hayot kechirgan. Lekin u gapirishni butunlay bilmagan. Uni «odamlashtirish» juda sekinlik bilan amalga oshgan. Faqat o'rgatishning uchinchi yilida ikki oyoqda turishni (shunda ham orqasidan ushlab turilsa) o'rgangan. Yetti yildan keyingina ikki oyoqda yura boshlagan. Lekin, baribir,

yugurish zaruriyati tug'lsa, emaklab chopgan. Nutqqa o'rgatish yana ham qiyin bo'lgan. To'rt yil davomida faqat olti so'zni bilib olgan. Yetti yil davomida Kamolaning lug'atidagi so'zlar ellikka ham bormagan. 16 yoshida bu qiz o'zini 4 yoshli qiz holida tutgan. Bu misol ham tilning jamiyat bilan bog'liqligini, uni jamiyatdan ajratish mumkin emasligini, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatib turibdi. Ma'lumki, jamiyatga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisalarning turlari nihoyatda ko'p. Bazis, ustqurma, ideologiya kabi ijtimoiy hodisalar yoki ayrim tabiiy hodisalar (yog'ayotgan yomg'ir, quyosh nuri va hokazolar) ham jamiyatga xizmat qiladi. Ammo bu hodislarning jamiyatda bajaradigan funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanish doirasi bor. Masalan, bazis jamiyatning iqtisodiy tuzilishini, ustqurma esa jamiyatning siyosiy, yuridik, ideologik normalarini belgilab beradi. Har bir tuzumning o'z bazisi va ustqurmasi bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarining o'zgarishi bilan bazis va ustqurma ham o'zgarib turadi. Til esa na bazis va na ustqurma tarkibiga kirmaydigan o'ziga xos ijtimoiy hodisadir.

References:

1. Kosimov, A. (2022). Tilshunoslik Va Psixologiyada Metaforalarning Tutgan O'rni, Sharq Va G'arb Olimlarining Metaforalar Yasalishi Borasidagi Fikrlari. Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(3), 124-127.
2. Oyniso, X. (2022). Tilshunoslik Til Haqidagi Fan Sifatida. Tilshunoslikning Boshqa Fanlar Bilan Bog'liqligi. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(4), 667-679.
3. Steinbeck, J., & Style, W. S. 70230201-Qiyosiy Tilshunoslik Va Lingvistik Tarjimashunoslik. Tafakkur Va Talqin, 660.